ISSN 2181-371X
SJIF 2023: 5.305 VOLUME 2 ISSUE 10
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

SHARQONA TARBIYA – MA'NAVIYAT POYDEVORI

Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi
NamDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini Sharqona axlo-odob namunalarida tarbiyalashning dolzarb muammolari, tarbiyada buyuk mutafakkirlar merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy meros, sharqona odob, kichik maktab davri, globallashuv, qadriyatlar, ommaviy madaniyat.

Аннотация: В статье говорится об актуальных проблемах воспитания младших школьников в соответствии с восточными нравами, педагогических возможностях использования наследия великих мыслителей в воспитании.

Ключевые слова: духовное наследие, восточные нравы, младший школьный возраст, глобализация, ценности, массовая культура.

Abstract: The article talks about the current problems of educating elementary school students according to Eastern morals, pedagogical possibilities of using the heritage of great thinkers in education.

Basic concepts: spiritual heritage, oriental manners, early school age, globalization, values, mass culture.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni buyuk ajdodlarimiz kabi go'zal xulq va odobli, keng qamrovli - bilimli, dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo'sha oladigan darajada kamolotga erishishlarini, yuksak ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashgan umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilish ruhida ulg'ayishlarini ta'minlash borasida barcha bir tan, bir jon bo'lib harakat qilishi eng muhim va eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida o'quvchilar ongiga vatanparvarlik

tuyg‘ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rganishlari uchun sharoitlarni yaratish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va madaniy merosi, ularning ibratli hayot yo‘li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissalariga oid targ‘ibot ishlarini olib borish, ulug‘ allomalarning tug‘ilgan sanalariga bag‘ishlangan ilmiy haftaliklar, seminar va anjumanlar tashkil etish; hayotiy misollar asosida ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati va mas’uliyati haqida tushuntirish ishlarini olib borsin, ularni qiziqtirgan va xavotirga solayotgan masalalar bo‘yicha ochiq muloqotlar hamda o‘quv-seminarlarni tashkil zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Chunki XXI asr globallushuv davri, texnika davrida istaymizmi yo‘qmi yoshlarimizning tarbiya va odob – axloqiga zid bo‘lgan axborotlar oqimi kirib kelmoqda, ko‘p yillik tarixga ega o‘zbek millatining o‘z urf – odatlari, madaniyati, tarbiya yo‘li, ma’naviyati bor bo‘lsada, afsuski ba’zi hollarda ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar, “ommaviy madaniyat” o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi yoshlarimiz tarbiyasi va kelajagiga tahdid soluvchi omillardir.

Ma’lumki, kichik maktab yoshidagi davrda axloqiy xatti-harakat poydevori qo‘yiladi, axloqiy me’yorlar va xatti-harakat qoidalari o‘zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo‘nalishi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy onglari I sinfdan IV sinfgacha bo‘lgan davr mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi. Bu yoshning oxirgi davrlariga kelib axloqiy bilimlar, tasavvurlar va mulohazalar sezilarli darajada boyiydi, ancha anglangan bo‘ladi, turli-tumanlikka ega bo‘ladi, umumiylashadi.

Garchi kichik maktab yoshidagi davr shaxsning taraqqiyotida hal qiluvchi siljishlar davri bo‘lmasa ham bu davrda shaxsning tarkib topishi etarli darajada sezilarli yuz beradi. Maktabga kirish bolaning hayotida burilish bosqichi hisoblanadi. Kattalar (o‘qituvchilar) va tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir umummaktab, sinf, jamoasiga qo‘shiladi. O‘quvchi oldiga bir qator jiddiy talablarni qo‘yadigan o‘qishga – yangi faoliyat turiga qo‘shilish o‘quvchini

o‘z hayotini qat’iy tarzda tashkil qilishga, qonun-qoida va rejimga bo‘ysunishga majbur qiladi. Bularning barchasi tevarak-atrofdagi voqelikka, boshqa kishilarga, jamoaga, ta’limga va uning bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarga nisbatan yangicha munosabatlar sistemasini tarkib topshirishga va mustahkamlashga qat’iy ravishda ta’sir qiladi, xarakterni, irodani tarkib toptiradi, qiziqishlar doirasini kengaytiradi, qobiliyatlar taraqqiyotini belgilaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning xarakteriga xos yosh xususiyatlariga mehribonlik, bilimga qiziquvchanlik, to‘g‘rilik, ishonuvchanlik kabi ijobiy xislatlar ham kiradi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim yosh xususiyatlaridan biri – taqlidchanlikdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar katta yoshli kishilarga va ba’zi tengqurlariga, shuning bilan birga yaxshi ko‘rgan kitoblari va kinofilmlardagi qahramonlarga taqlid qilishga intiladilar. Bu, bir tomondan, shaxsiy namuna bo‘lish orqali shaxsning ijtimoiy qimmatli xislatlarini tarbiyalash imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa, ayrim xavfga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda o‘quvchi shaxsida Sharqona odob-axloqni shakllantirish imkoniyatlaridan keng foydalanish va zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa milliy Sharqona tarbiyaning negizi hisoblangan buyuk allomalar, mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosi yosh avlodni har tomonlama etukligini ta’minlashda poydevor vazifasini o‘tashini unutmasligimiz zarur.

Tarbiya haqida Shayx Sa’diy o‘zining «Guliston» asarida shunday deb yozgan edi: «Kimda - kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach, baxtli bo‘la olmaydi. Ho‘l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani faqat olovda toblab to‘g‘rilash mumkin». Tarbiya haqidagi bu g‘oya avlod-ajdodlarimizdan bizga etib kelgan buyuk meros bo‘lib, u komil insonni voyaga etkazishda muhimdir.

Luqmoni Hakimdan: - Nasihatlaringizning ko‘pisini yoshlarga, ammo yoshi kattaroqlarga kamroq nasihat qilasiz, buning sababini bilsak bo‘ladimi?, – deya so‘rashdi. Luqmoni Hakim shunday javob berdilar:

- Bog‘bon erni yumshatib ko‘chat o‘tqazib, uning atrofini xas – xashakdan, zararli yovvoyi o‘tlardan tozalab, kerak bo‘lgan vaqtda suv bilan o‘g‘it berib tursa, tez vaqtda daraxt etiladi, unumli, serhosil bo‘ladi.

Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshi tarbiya qilinsa, go‘zal axloqli, odobli etib o‘stirilsa, u bola nafaqat o‘ziga, ota – onasiga baxt – saodat keltiradi, jamiyat uchun foydali, kerakli inson bo‘lib etishadi, dedilar. Shunday ekan har birimiz tarbiya, odob – axloq borasida mas’uliyatli bo‘lishimiz, bunga qo‘l uchi – til uchida emas, butun qalb – vujud bilan his qilib, anglab etgan holda yondashmog‘i darkor.

Har narsadan ham avvalo axloqimiz, odobimiz, tarbiya – madaniyatimizni go‘zal qilmog‘imiz, dasturxonimizda egulik bo‘lmasada adabimizni yuksaltirish yo‘lidagi barcha chora – tadbirlarni o‘z – o‘zimizda qo‘llamog‘imiz bizni yanada yuksaltiradi, komillikka etaklab, yaxshiliklar bilan qarshilashtiradi.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga etaklash muammolariga e’tibor berilgan. Ularning yoshlarni halol mehnat bilan hayot kechirishga undaydigan, xolis va ezgu ishlar bilan el – yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, to‘g‘ri xulosa chiqaradigan insonlar bo‘lishiga undovchi hayotiy qarashlari, hikmatlarning ahamiyati beqiyosdir.

Azaldan Sharq - olimlari, mutafakkir – ulamolari bilan ayniqsa mashhurdir. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak, Sharqona odob – axloq ko‘p millatlarda o‘z ahamiyati, hurmat – e’tiboriga ega. Xulosa qilish aytish mumkinki, Sharqda yetishib chiqqan ko‘plab olim-u ulamolar o‘gitlaridan, hayotiy tajribalari hamda boy merosidan yoshlarimiz millat faxri, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan vorislar bo‘lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-241-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’lmini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-143-sonli Farmoni.
3. Tarbiya (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) /Tuzuvchi M.N.Aminov. –T. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 y. –528 b.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma). –T.: 2013, -279 b.